



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 23-fevral, № 40 (8663)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AVIATSIYA SOHASIDAGI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-fevral kuni aviatsiya sohasidagi davlat korxonalari transformatsiyasi bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda aviatsiya xizmatlari bozorida xususiy sektorga keng yo'l ochildi. Aviakompaniyalar soni 15 taga, jumladan, xususiylari 10 taga yetdi. O'tgan yilning o'zida 28 ta yangi samolyot olib kelindi. Bularning natijasida oxirgi yetti yilda reyslar 2 barobar ko'paygan. Samarqand aeroporti xususiy sheriklikka berilgani hisobiga yo'lovchi oqimi 4 karra oshib, 1 millionga yetgan.

Shunga qaramasdan o'tgan yili aviatsiya xizmatlari hajmi bor-yo'g'i 11,6 foiz o'sgan. Mamlakatimiz strategiyasida 2030-yilga qadar aviaqatnovlar sonini 4 karra oshirish rejalashtirilgan. Unga erishish uchun sohada yillik o'sish

sur'atlari 20 foizdan kam bo'lmasligi kerak.

Bu infratuzilma, boshqaruv, narx va sifat borasida tizimli ishlarni talab etadi. Yurtimizda aviachiptalar narxi nisbatan qimmat. Ham hududiy, ham xorijiy reyslar soni talabga qaraganda kam. Parvozlarning asosiy qismi haligacha Toshkent va Samarqand aeroportlariga to'g'ri keladi. Aeroportlarda havo kemalari va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan, qo'shimcha xizmatlardan daromad jami tushumning bor-yo'g'i 7 foizini tashkil qiladi. Toshkent, Navoiy, Namangan aeroportlari tranzit salohiyati to'liq ishga solinmayapti.

Taqdimotda "Uzbekistan Airways"

va "Uzbekistan Airways" aksiyadorlik jamiyatlarida transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish, xizmat turlari va daromadni ko'paytirish bo'yicha joriy yilgi rejalar bayon qilindi.

Xususan, milliy aviakompaniyaga xalqaro kredit reytingini olib, uni "IPO"ga chiqarish jarayoni boshlanadi. Buxoro, Namangan, Urganch va Andijon aeroportlari xususiy boshqaruvga berilib, modernizatsiya qilinadi. Joriy yilda reyslar soni 20 foizga oshiriladi.

Sohada xarajatlarni 20 foizga qisqartirish choralari ko'riladi. Yonilg'i sarfi yuqori bo'lgan eski samolyotlar sotilib, zamonaviy va tejamkor havo kemalari olib kelinadi. 72 ta yo'nalish bo'yicha optimal parvozlarni marshrutini

tanlash orqali yonilg'i sarfi sezilarli kamaytiriladi. Foydalanilmayotgan va daromad keltirmayotgan aktivlar sotuvga chiqariladi.

Mutasaddilarga xarajatlarni qisqartirish dasturini tasdiqlab, xizmatlar raqobatdoshligini oshirish, xususiy sheriklik loyihalarini tezlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Aeroportlarda qo'shimcha xizmatlarni ko'paytirish, Navoiy aeroportida samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatishni rivojlantirib, uning salohiyatini to'liq ishga solish zarurligi ta'kidlandi.

Davlat aviakompaniyalariga xorijiy malakali mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, kadrlar tayyorlashni yaxshilash masalalari ham aytib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

"O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI "YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI"DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RSIDA

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan keng ko'lami islohotlarni 2024-yilda samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishish bo'yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. 2024-yil 1-martdan boshlab alohida ishlash talab etiladigan, shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi qarori bilan "Yoshlar balansi" asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga birlashtirilsin. Bunda mazkur rahbarlar:

har oyda kamida bir marotaba o'zlariga birlashtirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashib borsin;

o'zlariga birlashtirilgan yoshlar muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun tegishli tashkilotning budjetdan tashqari

mablag'lari va qonunchilik bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan zarur mablag'larni Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartib asosida yo'naltirishga ruxsat etilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatlil va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ullar etib Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi, Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) hamda yoshlar birlashtirilgan vazirlik va idoralar belgilansin.

2. Yoshlarning salohiyati, iste'dodi va tashabbuslarini to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida:

2024-yil 1-martdan boshlab mahalla, ta'lim muassasalari, korxona va tashkilotlar tizimida mukofot jamg'armasi 600 million so'm miqdorida xorijiy tillar ("Ibrat farzandlari") bo'yicha tanlovlar, kibersport musobaqalari va "Zakovat" intellektual o'yinlari yuqori saviyada tashkil etilsin;

Yoshlar ishlari agentligi va mahalliy hokimliklar tomonidan kasblar tanlovida g'olib bo'lgan yoshlarni o'z hududlarida jihozlangan ustaxonalar bilan "Yoshlar do'kani" jamg'armasi mablag'lari hisobidan ta'minlash amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Mazkur bandning to'liq, sifatlil va so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) belgilansin.

(Davomi 2-betda).



IT-XIZMATLAR EKSPORTINI OSHIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-fevral kuni IT-xizmatlar infratuzilmasi va eksportini rivojlantirishga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda o'tgan yili 20-dekabr kuni Raqamli texnologiyalar vazirligida bo'lgan videoselektor yig'ilishida topshiriq berilgan edi.

Hozirgi kunda IT-park rezidentlari soni 1 ming 700 taga yetib, ularda 26 ming nafar xodim faoliyat ko'rsatmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida rezidentlar sonini 10 barobar oshirib, ulardagi ish o'rinlarini 100 mingtaga yetkazish, sohada eksport hajmini 5 milliard dollarga olib chiqish belgilangan.

Shu maqsadda hududlarga IT-eksportchi tashkilotlarni keng jalb qilishga qaratilgan "Zero Risk" dasturini qo'llash taklif etilmoqda. Bu dasturda ishtirok etuvchi korxonalarga IT-park tavsiyanomasi asosida bo'sh turgan davlat binolari 1 yilgacha muddatga tekin

foydalanishga beriladi. Bu muddat tugagach, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuziladi. IT-park tomonidan texnika va jihozlar 1 yilgacha muddatga tekin foydalanishga beriladi.

Bu korxonalar faoliyatini rivojlantirishi uchun ham qator imtiyozlar nazarda tutilmoqda. Jumladan, ushbu dastur bo'yicha korxonalarga xodimlarni ishga olish va malakasini oshirish xarajatlari 50 foizgacha qoplab beriladi.

Mahalliy IT-kompaniyalarni xalqaro miqyosga olib chiqish bo'yicha "Local to Global" loyihasi amalga oshiriladi. Unga ko'ra mahalliy IT-kompaniyalarning jahon bozoriga chiqishi, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishi, xorijiy ekspertlarni taklif etishida

xarajatlarning 50 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Taqdimotda "raqamli inklyuzivlik" loyihasini amalga oshirish bo'yicha ham axborot berildi. Yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarda IT-xizmatlar ko'rsatish ko'nikmalari shakllantiriladi. Natijada 9 mingta ish o'rni yaratilishi, jumladan, 5 mingga yaqin ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligi ta'minlanishi mo'ljallangan.

Umuman, "raqamli inklyuzivlik" loyihasi natijasida 25 ming nafar shaxsni ish bilan ta'minlash hisob-kitob qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma'qullab, qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir!" Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

QALBLARNI YORITGAN CHIROQ

Ana shu ehtiyojni paydo qiluvchi va uni shakllantiruvchi narsa, shubhasiz, kitobdir. Kitob — insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i, bilim manbai. Fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur chirog'i bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas biladi. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan.

Avvalgi davrlarda ko'ngil yozish, ruhni oziqlantirish uchun kitobdan boshqa vosita bo'lmagan. Bugun esa vaqtni chog' o'tkazishning ming bir usuli kashf etilgan esa-da, hali birontasi kitobning o'rniga dav'ogarlilik qilolayotgani yo'q. Biroq bugungi kunda

mutolaa madaniyati bir qadar susaygandek. Chunki aksariyat yoshlar ko'proq kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib, kitob degan ulug' murabbiyning ko'chasidan o'tmay qo'yishdi. Bugun inson o'zini qiziqitirgan istalgan yangiligini

axborotni bir zumda olishi, kompyuter yoki telefon qarshisida soatlab o'tirishi mumkin, ammo kitob o'qish uchun biroz vaqt sarflashga erinishadi. Aslida hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o'rnini bosolmaydi. Masalan, "O'tkan

kunlar" romani asosida ishlangan film qanchalik mahorat bilan suratga olingan bo'lmasin, kitobning ta'sirini, jozibasini berolmaydi.

Xalqimiz azaldan ma'naviyatga oshufta bo'lgani uchun uning til xazinasida kitob va u beruvchi bilim bilan bog'liq durlar yetarli. Jumladan, "Kitobsiz aql — qanotsiz qush", "Go'zallik — ilmu ma'rifat bilan", "Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar", "Hunar — oqar buloq, ilm — yonar chiroq", "Baxt belgisi — bilim", "Bilim — aql chirog'i", "Beshikdan qabrgacha bilim izla", "Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol" kabi purhikmat maqol va hikmatli so'zlarimiz borki, bularning bari bejiz aytilmagan.

Asosiysi, necha asrlardan buyon sayqallanib, qanchadan-qancha avlodlarga yo'ldi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyalil, kasb-hunarli va albatta, baxtli hamda davlatli bo'lishining muhim omili bu — kitobga oshno bo'lish, mutolaa umrbo'yi kanda qilmaslik.

Kitob o'qish inson tafakkurini kengaytiradi, uni hayotga teran ko'z bilan qarashga o'rgatadi. E'tibor bergan bo'lsangiz, XXI asrning boshlari tarixga kitobga muhabbatning so'nishi jarayoni bilan kirdi. Sababi keyingi vaqtlarda nafaqat yosh avlod, balki kattalar ham internet va turli



Oqil SALIMOV,
akademik

ijtimoiy tarmoqlar asiriga aylanib, ko'p kitob o'qimay qo'ydi.

Bugun Vatanimiz jadal rivojlanayotgan bir davrda mutolaa va kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunonchi, yosh avlodning har tomonlama shakllanishida mutolaaning o'rni beqiyosligi anglangan holda Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi.

Bu hujjatda aholining keng qatlamini kitob o'qishga jalb qilish, kitobxonlikni targ'ib etish, farzandlarimizni bog'cha yoshidan boshlab kitobga

mehri qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e'tibor berish, ularni chop etish sifatini yaxshilash, turli mazmundagi asarlar bilan to'ldirilgan kitob do'konlarini ko'paytirish, kitoblarni fondini yanada boyitish ko'zda tutilgan.

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasida jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.



Biz va jahon

PARLAMENTIMIZ VAKILLARI XALQARO TUZILMAGA A'ZO BO'LDI

Ma'lumki, shu yilning 21 — 25-yanvar kunlari O'zbekiston davlat organlari delegatsiyasining Qatar davlatiga tashrifi qonunchilik, sud-huquq va korruptsiyaga qarshi kurashish yo'nalishlaridagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish hamda mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlardan bo'lgan edi.

E'tiborlisi, tashrif doirasida parlamentimiz vakillarini "GOPAC" (Global Organization of Parliamentarians Against Corruption) tashkilotiga a'zo sifatida qabul qilish masalasi rasmiylashtirilgandi.

Bu xususda kecha AOKada Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi axborot xizmati rahbari Sherzod Saparov ishtirokida korruptsiyaga qarshi kurashish borasida xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlar

yuzasidan tashkil etilgan brifingda batafsil ma'lumot berildi.

Aytish joizki, "GOPAC" parlament a'zolarining korruptsiyaga qarshi global tashkiloti sanaladi.



E'tirof

HAMYURTIMIZ IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTI MUKOFOTIGA LOYIQ KO'RILDI

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik Shuhrat Sirojiddinov Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining Tarix, madaniyat, adabiyot va tasviriy san'at nominatsiyasi bo'yicha 2023-yilgi mukofoti sohibi bo'ldi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida ushbu mukofotni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari Odil Abdurahmonov tantanali ravishda topshirdi.

Qayd etish joizki, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 2023-yilgi mukofoti mazkur

tashkilotga a'zo 10 ta davlat vakillari orasidan 9 nafar olimga nasib etdi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining yillik mukofoti o'zining ilmiy va ijtimoiy sa'y-harakatlari bilan mintaqarivojiga alohida hissa qo'shayotgan olimlar, davlat va jamoat arboblarga topshiriladi.



PARLAMENTIMIZ VAKILLARI XALQARO TUZILMAGA A'ZO BO'LDI



Uning asosiy maqsadi esa davlat boshqaruvida halollikning yuqori standartlarini joriy etishda korruptsiyaga qarshi kurashish, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash borasida amaldagi hamda sobiq parlament a'zolari, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlari sa'y-harakatlarini birlashtirish hamda ular o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirishdan iboratdir.

Hozirgi kunda bu tuzilma tarkibida bir nechta mintaqaviy va o'nlab mahalliy bo'limlar bo'lib, jami a'zolari soni 1400 nafarni tashkil etadi. Endilikda milliy parlamentimiz vakillarining ular safidan joy olgani e'tiborga molik.

Ma'lumot o'rnida: mazkur tashkilot 2002-yil oktabr oyida Kanadaning Ottava shahrida korruptsiyaga qarshi kurash va samarali boshqaruvni takomillashtirishga bag'ishlangan 170 dan ortiq parlament a'zolari va 400 dan ortiq kuzatuvchilarni birlashtirgan Global konferensiya doirasida tashkil etilgan.

“Xalq so'zi”.



O'rganish

Videokuzatuv kameralari integratsiyasi yuqori baholandi

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi ishchi guruhi o'rganishlarni Sirdaryo viloyati bo'ylab davom ettirmoqda.

Xususan, Guliston shahar hokimligida o'tkazilgan yig'ilishda ishchi guruh a'zolari, IIB xodimlari, mahalliy Kengash deputatlari, jamoatchilik vakillari, mas'ul soha rahbarlari va mutaxassislar ishtirokida viloyatda huquqbuzarliklarning oldini olish bilan bog'liq muammolar atroflicha tahlil qilindi. Ayni chog'da bu boradagi vazifalar yuzasidan zarur tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, o'rganish davomida viloyatda jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlar bilan tanishib chiqildi.

Jumladan, navbatchilik qismidagi Vaziyatlar markazida bo'lib, viloyatdagi chorrahalar, aholi gavjum joylarga o'rnatilgan videokuzatuv

kameralari markazga integratsiyalashtirilgani yuqori baholandi. Shuningdek, IIBda tashkil etilgan “102” avtomatlashtirilgan tizimning ish faoliyati ko'zdan kechirildi. Muloqot asnosida ushbu tizimni to'liq avtomatlashtirish va inson omilini kamaytirish hamda sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining oldini olish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar ham keng tahlil qilindi.

Qolaversa, viloyatdagi xotin-qizlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olish maqsadida “qizil”, “sariq” va “yashil” toifaga kiritilgan ayollar bilan o'tkazilayotgan profilaktik chora-tadbirlar holati ham ko'rib chiqildi.

“Xalq so'zi”.

Jarayon

Orolning qurigan qismini yashil hududga aylantirish ishlari davom etmoqda

Yodingizda bo'lsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 15-16-noyabr kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasiga amalga oshirgan tashrifi davomida Orol dengizining qurigan qismida “yashil qoplamalar” — himoya o'rmonlarini barpo qilish, hududdagi ekologik holatni yaxshilash, zararli tuz va changlar ko'tarilishining oldini olish maqsadida bir qator taklif va g'oyalarni ilgari surgan hamda zarur topshiriqlar bergan edi.

Aytish joizki, ana shu tashrifdan so'ng hududda keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. O'tgan davrda millionlab ko'chatlar o'tqazildi hamda cho'l sharoitiga mos butalar urug'lari sepildi. Muhimi, bu sa'y-harakatlar ayni chog'da ham izchillik bilan davom ettirilayotir.

Xususan, shu kunlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev rahbarligida ko'plab aholi vakillari ishtirokida saksovil ekish aksiyasi boshlab yuborildi. Unda Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi

mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Botir Matmuratov ham ishtirok etdi.

Shu o'rinda Orol dengizining qurigan tubida “yashil qoplamalar” yaratish maqsadida urug'larni yig'ish va himoya o'rmonlarini shakllantirish ishlarida har yili mingdan ortiq texnikalar, kichik aviatsiya va ishchi kuchi qatnashayotganini ta'kidlash zarur.

Joriy yilda 300 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo qilish rejalashtirilgan.

“Xalq so'zi”.

Qonun tashabbuskoridan — quyi palataga

O'ZBOSHIMCHALIK BILAN QURILGAN UY-JOYLARGA NISBATAN MULK HUQUQI RASMIYLASHTIRILISHI MUMKIN

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan kiritilgan “O'zboshimchilik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida”gi qonun loyihasini dastlabki tarzda ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, 2018-yilda Prezidentimizning tegishli Farmoniga muvofiq o'tkazilgan bir martalik umumdavlat aksiyasi doirasida 621 ming nafardan ortiq fuqarolarning o'zboshimchilik bilan egallangan yer uchastkasida tegishli ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylarga nisbatan egalik huquqi e'tirof etilib, ularga kadastr hujjatlari rasmiylashtirib berilgan edi. Shunga qaramasdan, bugungi kunga qadar 126 mingdan ziyod fuqarolarning ruxsatnomasiz qurilgan uy-joylarga nisbatan egalikni belgilash masalasi qonuniy yechimini kutmoqda.

Bundan tashqari, ko'plab holatlarda fuqarolarning bog'dorchilik-uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjoylarga egallangan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish asoslari nazarda tutilyapti.

Bundan tashqari, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasining yer fondi toifasini o'zgartirish, ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasini xususiy lashtirish tartiblari o'z aksini topmoqda.

inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan huquqni e'tirof etish asoslari va uning aniq tartibini belgilash zarurati mavjud.

Qonun loyihasi bilan yer uchastkasi va unda qurilgan imoratga bo'lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurilgan o'zboshimchilik bilan egallab olingan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish tartibi belgilanmoqda.

Shuningdek, ortiqcha egallangan yer uchastkasiga, bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turarjoylar egallangan yer uchastkasiga ijara huquqini e'tirof etish asoslari nazarda tutilyapti.

Bundan tashqari, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasining yer fondi toifasini o'zgartirish, ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, ijara huquqi e'tirof etilgan yer uchastkasini xususiy lashtirish tartiblari o'z aksini topmoqda.



Ahamiyatlisi, loyihada o'zboshimchilik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga bo'lgan huquqlar e'tirof etilgan taqdirda, yer uchastkasini o'zboshimchilik bilan egallab olgan shaxslar ma'muriy javobgarlikdan ozod qilinishi ko'zda tutilyapti.

Qayd etilishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining o'zboshimchilik bilan egallangan yer uchastkalariga nisbatan ijara huquqi hamda ularda qurilgan uy-joy boshqa bino va inshoot yoki ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqi rasmiylashtirilishi uchun huquqiy asoslar yaratilishiga xizmat qiladi.

Qonun loyihasining muhokamasi davom etmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.

JAMIYAT HAYOTIDA TO'LAQONLI ISHTIROK ETISH IMKONIYATLARI KENGAYADI

Avvallari jamiyatimizda imkoniyati cheklangan kishilarga davlat idoralari, davlat xizmatchilarining munosabati yaxshi emas edi. Oxirgi olti-yetti yilda ularga munosabat ham, e'tibor ham mutlaqo o'zgardi, desak, aslo yangilishmaymiz.

Munosabat

Darhaqiqat, so'nggi yillarda mamlakatimizda aholi, ayniqsa, keksa yoshdagi, nogironligi bo'lgan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni hamda yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, ularning huquq, erkinliklarini ta'minlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Bir paytlar “imkoniyati cheklangan kishilar” degan tushuncha davlat va jamiyatning nogironligi borlarga bo'lgan tor, bir yoqlama munosabatini ifodalab kelgan bo'lsa, bugun qonunchilik o'zgarib, “nogironligi bo'lgan shaxslar” degan tushuncha yuzaga keldi. Shu asosda davlat va jamiyat nogironligi borlarga imkoniyati cheklanganlarni deb emas, balki shaxs deb munosabatda bo'lishga o'tdi. Bu, o'z navbatida, uning huquqlari tan olingani va ro'yobga chiqishi uchun imkoniyat yaratilayotganidan dalolat beradi. Prezidentimiz raisligida 20-fevral

kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, “O'zbekiston — ijtimoiy davlat” degan tamoyilni hayotga tatbiq qilish, ijtimoiy davlat tamoyilining tarkibiy qismi ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokama etildi.

Aytish joizki, nogironligi bo'lgan shaxslar ijtimoiy himoya bilan qamrab olinishi va alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda mamlakatimizda inklyuziv jamiyat yaratish, imkoniyati cheklangan fuqarolarimizni qo'llab-quvvatlash, ularga zarur sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar, “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. BMning Nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiyasi esa ratifikatsiya qilindi.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: xosh, bugungi kunda nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin harakatlanishi, o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qanchalik imkoniyatlar yaratib berilmoqda? Ular uchun to'siqsiz muhit yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning holati qay darajada?

Albatta, o'tgan qisqa davrda ushbu sohada salmoqli ishlar bajarildi va katta natijalarga erishilayotganini ham ko'rib turibmiz. Lekin poytaxtimizdagi maktab, bog'cha, shifoxona, yo'l, chorrahalarining 85 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar harakatlanishi uchun moslashmagani bu borada zarur choralar ko'rishni taqozo etadi. Chunki 2,5 mingta avtobus bekatinig 2,3 mingtasi, 1 944 ta avtobusdan 920 tasi nogironligi bo'lgan shaxslar ehtiyojiga mos emas.

Bu vaziyatni o'zgartirish uchun poytaxtimizdagi barcha bekatlarni, jamoat transporti, jumladan, metroni nogironligi bor shaxslar uchun moslashtirish bo'yicha ikki yillik dastur tasdiqlash, bino va inshootlarni qurish loyihasi — nogironligi bo'lganlar uchun qulay muhit yaratilgani bo'yicha majburiy ekspertizadan o'tkazishni amalga oshirish kiritish taklif etildi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nogironligi bor shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning eng samarali

Mushohada

HAVOLAKI NORMALAR KERAKMI?

Qonun ijodkorligi — murakkab jarayon. Ba'zida qonun ijodkorligi faoliyatida u yoki bu qoidani qonunda to'g'ridan-to'g'ri yozish yoki bunday qoidani boshqa qonunchilik hujjatiga havola etish amalga oshiriladi. Bu — havolaki norma, deyiladi.

Havolaki normalar bir nechta ko'rinishda bo'ladi. Xususan, ishlab chiqishi kerak bo'lgan subyektni aniq ko'rsatib, masalan, “...tartib Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi” tarzida yoki subyektni aniq ko'rsatmasdan “qonunchilikda belgilangan tartibda...” tarzida ko'rsatiladi.

Havolaki normalarning xavfli tarafi shundaki, bunda qonun ijodkori u yoki bu masalani tartibga solishni boshqa mansabdor shaxsning ixtiyorida qoldiradi. Shu bois milliy parlament so'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar qabul qilinishiga alohida e'tibor qaratyapti. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi va boshqalar shular jumlasidandir.

Lekin baribir havolaki normalardan to'liq voz kechib bo'lmaydi. Masalan, ayrim hollarda uzun ro'yxatlar, sxemalar, suratlar va boshqa shunga o'xshash ko'rgazmali tartibga solish ishlarini boshqa hujjatga havola etish mumkin. Masalan, asosiy dori vositalari ro'yxatini qonunning o'zida belgilab bo'lmaydi. Birinchidan, u juda uzun, ikkinchidan, bu ro'yxat tez-tez yangilanib turilishi kerak. Shuning uchun havolaki normalar ham ba'zida joiz. Faqat uning farqiga borishimiz darkor. Ya'ni qonun darajasida belgilanishi zarur bo'lgan qoidalarni qonunosti hujjatiga havola etmaslik lozim. Biroq yana boshqa muammo mavjud. Biz “kerak” deb hisoblaydigan havolaki normalar o'z vaqtida realizatsiya qilinadimi? Tasavvur eting, qonun kuchga kirdi, lekin uning ichidagi bitta qoida hanuzgacha mexanizmiga ega emas. Chunki u havolaki bo'lib, amalda ishlab chiqilmasdan qolgan. Natijada qonun “jonsiz” bo'ladi, ishlamay turadi.

Parlament nazoratining alohida shakli sifatida Qonunchilik palatasidagi qo'mitalar qonunlar ijrosini ta'minlash uchun qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinishi ustidan doimiy monitoring olib boradi. Uning natijasi bo'yicha sohada qator muammolar ko'tariladi.

Yaqinda Prezidentimiz tomonidan

Muxtasar aytganda, ushbu qaror qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish, qonunlarning sifatini oshirish, bu jarayonda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va shu orqali qonunlarda ko'proq xalq manfaatini aks ettirilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jahongir SHIRINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq
masalalari qo'mitasi raisi.



imzolangan “Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror sohadagi qator masalalar yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Birinchidan, 40 dan ortiq havolaki normalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlanib, unda aniq ijrochilar, aniq muddatlar belgilandi.

Ikkinchidan, joriy yilning 1-martidan boshlab, agar qonun loyihasida havolaki norma bo'lsa, o'sha qonunning o'zida uni amalga oshirishning aniq muddati va mas'ul belgilanadi. Ya'ni endi shunchaki “qonunchilikda belgilangan tartibda” deb yozish bilan cheklanib bo'lmaydi. O'sha qonunning o'zida “falon tashkilot ushbu tartibni falon vaqtga qadar ishlab chiqsin” degan qoida yoziladi.

Uchinchidan, muayyan qoidalarni qonunosti hujjatidan qonun darajasiga ko'tarish imkoniyatining muhokama qilinishi shartliki belgilanib, uning natijalari qonun loyihasining tushuntirish xatida aks ettiriladi.

To'rtinchidan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda jamoatchilikning keng ishtirokini ta'minlash hamda hujjatning xalqchil bo'lishi uchun endilikda muhim iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjat loyihasi faqatgina ishlab chiqilganidan keyin emas, balki ishlab chiqilishidan oldin jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Bu xuddi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz loyihasi qanday ishlab chiqilgan bo'lsa (loyihani tayyorlashdan oldin xalqning fikri olingandi va shundan so'ng u umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi), xuddi shu tartibni boshqa qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda ham qo'llash taklif etilmoqda.

Jahongir SHIRINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq
masalalari qo'mitasi raisi.

